

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SALOMOVA GULI SHODIMURODOVNA

**MADANIYATLARARO KOMPETENTLIK TALABALAR KOGNITIV
JARAYONLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
психологических наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of
Psychological Sciences (DSc)**

Salomova Guli Shodimuradovna

Madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omili sifatida.....3

Саломова Гули Шодимурадовна

Межкультурная компетентность как социально-психологический фактор когнитивных процессов студентов.....37

Salomova Guli Shodimuradovna

Intercultural competence as a socio-psychological factor in students' cognitive processes.....73

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works78

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SALOMOVA GULI SHODIMURODOVNA

**MADANIYATLARARO KOMPETENTLIK TALABALAR KOGNITIV
JARAYONLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv, ayniqsa ijtimoiy globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi hamda raqamli formatlar va sun'iy intellektning jamiyat taraqqiyotiga keng miqyosda kiritib borishi sharoitida madaniyatlararo kompetentlik hamda kognitiv jarayonlarning ijtimoiy-psixologik omillari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Boston consulting group" tadqiqotiga ko'ra, bugungi kunda "texnologiya rivoji natijasida deyarli 9% dan 50% ga qadar kasblar yo'qolishi xavfi ostida turibdi"¹. Butunjahon iqtisodiy Forumi (16.01.2024, Davos) ta'lim va bandlik masalalari bo'limi xulosasiga ko'ra, qobiliyatlar reytingida eng dolzarb xususiyat bo'lib, tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik, qaror qabul qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jahon taraqqiyotining buguni va istiqbolida tanqidiy tafakkur, qaror qabul qilish ko'nikmasi va kognitiv moslashuvchanlik kabilarga ko'ra inson omili ijtimoiy faoliyatning psixologik-motivasion muammosi sifatida qaralmoqda.

Jahonda shaxs psixologiyasi, ayniqsa, uning ijtimoiy qobiliyati kognitiv jarayonning ijtimoiy-psixologik omili sifatida namoyon bo'lishiga oid amalga oshirayotgan tadqiqotlar tarkibida madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonning ijtimoiy-psixologik omili kabi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, quyidagi mavzular yo'nalishida bajarilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: individul xususiyatlarga ko'ra, tanqidiy tafakkurning emotiv, qaror qabul qilishning xulq-atvoriy, strategik, kognitiv komponentlarini belgilash; kognitiv moslashuvchanlikka xos bo'lgan integrativ tafakkur komponentlarini tasniflash; qaror qabul qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va modellarini madaniyatlararo hamda nostandart vaziyatlarga ko'ra takomillashtirish; tanqidiy tafakkur darajalari diagnostikasining madaniy kontekstni aks etuvchi yangicha usulini yaratish; zamonaviy talablar va sifat o'zgarishlariga ko'ra yoshlarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, "4C" 1-"tanqidiy tafakkur", 2-"kreativlik", 3-"muloqotchanlik", 4-"hamkorlik" sifatlarining turli ijtimoiy vaziyatlarda murakkab masalalarni yechish va qaror qabul qilishdagi vazifasini aniqlash.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda axborot, bilim, texnologiyalar va inson kapitaliga mamlakatni raqobatbardosh va barqaror rivojlantirishning strategik omili sifatida qaralib, bu borada ta'lim va tarbiya sifatini tubdan oshirish, yoshlarning jahon mehnat bozoridagi sifat o'zgarishlariga tayyorligi hamda raqobatbardosh ko'nikmalarga ega bo'lishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "...Yoshlar intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, ...Ta'lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq:

¹<https://www.bcg.com/publications>, <https://www.weforum.org/events/world-economic-forum-annual-meeting-2024/>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-apreldagi PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.

madaniyatlararo munosabatlar va noaniq vaziyatlar sharoitida talabalar ijtimoiy, hissiy holatlarining takrorlanish chastotasini psixologik baholash; madaniyatlararo ta'sirchanlikning turli gradatsiyalariga ko'ra talabalarning tanqidiy tafakkur darajalari va kognitiv moslashuvchiligida qaror qabul qilish komponentlarini psixologik jihatdan aniqlashtirish; shaxs faoliyatiga oid maqsadli omillar va komponentlarga ko'ra kognitiv jarayonlarni rivojlantirish modellarini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 20-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish mezonlari mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Jahonda talabalar kognitiv jarayonlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy xususiyatlarni ochib berish, madaniyatlararo kompetentlik va tajriba tadqiqi bo'yicha fanlar (sohalar)aro ilmiy tadqiqotlar, jumladan, quyidagi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda: University of Wisconsin-Stevens Point – CTC (AQSH); University of Southern California Marshall (AQSH); Institut de Décision et d'Analyse, Université de Toulouse (Fransiya); Centre for Advanced Research on Mind and Critical Thinking – NUS (Singapur); Oxford Uehiro Centre for Practical Ethics (Buyuk Britaniya); Jönköping University Intercultural Education and Research Centre (Shesiya); Universitet Sirius – NSKI (Rossiya) kabilarda olib borilmoqda.

Jahonda madaniyatlararo kompetentlikning shaxs kognitiv jarayoniga ta'siri mexanizmi va unga ko'ra ijtimoiy-psixologik omillar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: hamkorlikda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullariga ko'ra shaxsiy dispozitsiya

³<https://www3.uwsp.edu/ctc/Pages/default.aspx>;

<https://students.marshall.usc.edu/current-students/marshall-academic-resources/critical-thinking-initiative>;

<https://www.univ-tlse2.fr/accueil/formation-insertion/master-etudes-francaises-et-francophones-e2f>;

<https://usp.nus.edu.sg/curriculum/usp-courses/writing-and-critical-thinking-multidisciplinary-perspectives-on-mind>;

<https://edsa.decisionsciences.org/about-edsa/>; <https://www.practicaethics.ox.ac.uk/>; <https://ju.se/en/research.html>;

<https://siriusuniversity.ru/research/scientific-center-for-cognitive-research/>.

deb baholanadigan ko'nikma amaliy bilimlarning guruhda qo'llab-quvvatlanishi asosida takomillashishi isbotlangan – CTC (University of Wisconsin-Stevens Point) (AQSH); kognitiv qobiliyat va tanqidiy tafakkurni shakllantirishning ahamiyatiga ko'ra beshta muhim – biznes muammolarini belgilash, ulardan eng muhimini tanlash, ko'p variantli yechimlar topish, eng samaralisini topish, uni samarali amalga oshirish kabi bosqichlar ishlab chiqilgan (University of Southern California CFPA) (AQSH); tanqidiy fikrlashning ijtimoiy tashabbuskorlik, moslashuvchanlik biznes va moliyani boshqarishda aloqasi aniqlanib, qarorlar tahlilini tadqiq qilish va o'rgatishga ixtisoslashgan amaliy zahira yaratilgan (Institut de Décision et d'Analyse, Université de Toulouse) (Fransiya); Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga e'tibor qaratgan holda kognitiv fan hamda tanqidiy fikrlash bo'yicha tadqiqotlarda tafakkur operatsiyasi va ijodiy qobiliyatlar bog'liqligiga ko'ra o'quv dasturlari takomillashtirilgan (Centre for Advanced Research on Mind and Critical Thinking – NUS) (Singapur); yoshlarni intellektual rivojlantirishga ko'ra psixologiya va kognitiv nevrologiya aloqadorligiga amaliy yondashuv takomillashtirilgan (Университет Сириус – ИЦКИ) (Россия).

Jahonda shaxsning ijtimoiy qobiliyati hisoblangan madaniyatlararo kompetentlikni uning aqliy operativ qobiliyatiga ta'sir etishi va kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omili sifatida tadqiqi borasida, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tanqidiy tafakkurning emotiv, qaror qabul qilishning xulq-atvoriy, strategik, kognitiv komponentlarini individul xususiyatlarga ko'ra belgilash; kognitiv moslashuvchanlikka xos bo'lgan integrativ tafakkur komponentlarini tasniflash; madaniyatlararo va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aks etgan modelni takomillashtirish; tanqidiy tafakkur darajalari diagnostikasining madaniy kontekstni aks etuvchi yangicha usulini yaratish; ijtimoiy muhim masalalar yuzasidan strategik va kundalik qarorlar qabul qilishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni bartaraf etish hamda yoshlarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish borasida metodlar ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda etnomadaniy munosabatlar, tafakkur ko'rinishlari, xulq-atvor va emotsional intellektni o'rganish bo'yicha fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ijtimoiy va kognitiv muammolarning psixologik hamda pedagogik tomonlarini: E.G'.G'oziyev, D.G.Muxamedova, N.S.Safayev, K.A.Farfieva, G.N.Ibragimova, Sh.R.Baratov, M. G. Davletshin V. M. Karimova, Z. T. Nishonova, B. R. Kodirov, K. B. Kodirov, P. S. Ergashev, Z.X. Abdurahmonovalarning tadqiqot ishlarida yoritilgan⁴.

⁴ Goziyev E.G. Sotsial psixologiya. Darslik. – T.: «Noshir» nashriyoti. 2012. – 316 b.; Muxammedova D.G. Социально-психологические особенности оптимизации управленческой деятельности менеджера образования. Дисс. Психол. наук. – Ташкент, 2002. – 232 с.; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодёжи. Дис. ... д-ра. псих. наук. – Т.: УзНУ, 2005. – 36 с.; Баратов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создание психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс. докт. психол. наук. – Т., 1998. – 37 с.; Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Т., 1994. – 200 б.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix. f. dok. dis. – Т., 2005. – 391 б.; Abdurahmonova Z.X. “Yoshlarda milliy birlik tuyg'usini shakllantirish”. Nomzodlik dissertatsiyasi. Т., 2006, – 140 б.

Shaxsning pedagogik va psixologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, R.U.Galperin, D.A.Leontiyev, A.B.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, K.Preobrajenskiylar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan⁵.

Xorij tadqiqotchilaridan Z.Freyd, D.Gilford, E.Fromm, J.Piage, R.Plutchik, V.Neyser, V. Shnayder, Ch.Spirman tomonidan ilmiy tafakkur, konvergent tafakkur, divergent tafakkur, kognitiv jarayonlar, ilmiy va innovatsion rivojlanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan⁶.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №AL-662204339 "Maktab o'quvchilaridagi iqtidorni va kasbiy qiziqishni onlayn aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik dasturiy ta'minotni yaratish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi madaniyatlararo kompetentlikning talabalar kognitiv jarayoniga ta'siri mexanizmini ochib berish, ijtimoiy-psixologik omilga ko'ra psixologik-uslubiy tavsiyalarni asoslash hamda kognitiv jarayonlarining ijtimoiy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalarining kognitiv xususiyatlari bo'yicha madaniyatlararo kompetentlikka oid tajribalar ta'sirini aniqlash va mazkur xususiyatlar bog'liqligini miqdoriy tahlillarda dalillash;

madaniyatlararo munosabatlar jarayonida qatnashayotgan va tadqiqot uchun ishlab chiqilgan vaziyatlarda ishtirok etishi mo'ljallangan tajriba hamda nazorat guruhlarini mos ravishda tayinlash va mazkur guruhlarda qaror qabul qilish jarayonlarining dinamikasini baholash;

"Madaniyatlararo ta'sirchanlikni rivojlantirish modellari"ga ko'ra kognitiv moslashuvchanlik va tanqidiy tafakkur darajalarining psixologik determinantlarini aniqlash;

⁵ Абульханова К.А. Личностная организация времени жизни // Мир психологии, 2011. – № 3. – С. 93-104; Брушлинский А.В. «Субъект: мышление, учение, воображение» (М., 1996); Выготский Л.С. История развития высших психических функций (Фрагменты). – М.: Просвещение, 1995. – С. 264-284; Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 1999. – 487 с.; Петровский А.В. Вопросы истории и теории психологии. Избр. труды. – М., 1984. – 271 с. (Труды действительных членов и членов-корреспондентов АПН.); Рубинштейн С.Л. Избранные философско-психологические труды. Основы онтологии, логики и психологии. – М.: Наука, 1997. – 463 с.; Преображенский К. Как стать японцем. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 45-52.

⁶ Фрейд З. Психология масс и анализ человеческого "Я", 1921; Guilford P. The Nature of Human Intelligence. 1967; Fromm E. Sozialpsychologischer Teil. In: Studien über Autorität und Familie. Forschungsberichte aus dem Institut für Sozialforschung. – Alcan, Paris 1936. – P. 77–135.; Пиаже Ж. Избранные психологические труды. — М., 1994; Plutchik, Robert. Emotion: Theory, research, and experience. Vol. 1. Theories of emotion, vol. 1, New York: Academic, 1980; Neisser U. (1967) Cognitive Psychology. Appleton-Century-Crofts. – New York, 1976 Cognition and Reality: Principles and Implications of Cognitive Psychology. WH Freema.; Schneider, V, (2013). Psychological Need Satisfaction, Intrinsic Motivation and Affective Response to Exercise, in Adolescents. Psychology of Sport and Exercise, 14. – P. 776-785; Spirman Ch. General intelligence, objectively determined and measured // journal of Psychology, 1904.

tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik komponentlarining qarorlar qabul qilishdagi ta'sirini hamda kontent va sifat tahlillari olib borish zaruratini asoslash;

madaniyatlararo aloqadorlik tajribasi, madaniyatlararo kompetentlik omili asosida kognitiv xususiyatlarning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik modelini ishlab chiqish orqali tadqiqotning natijadorlik bosqichlarini qiyosiy dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida madaniyatlararo kompetentlik asosida talabalar kognitiv jarayoniniga Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Qarshi davlat universitetining 1600 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini madaniyatlararo kompetentlik asosida talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilishning kognitiv xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi, ularning kechish dinamikasi, qaror qabul qilish jarayoni darajalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda belgilangan vazifalarni bajarish uchun kontent tahlil, kuzatish, intervyu, sifatli tahlil, "ANOVA" – ikki omilli tahlil, "ANCOVA" – kovariasion tahlil, Pirson korrelyatsion tahlili, Styudent mezonida qiyosiy tahlil, kvantitativatsiya tahlil usullaridan hamda Metyu Martin va Rebekka Rubenning "Kognitiv moslashuvchanlik shkalasi", Milton Bennetning "Madaniyatlararo ta'sirchanlikni rivojlantirish modeli (MTRM)", tanqidiy tafakkurni aniqlash testlari bo'yicha mualliflik loyihasi, madaniyatlararo aloqadorlik tajribasini aniqlash uchun ijtimoiy-psixologik so'rovnoman (MAT) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda "madaniyatlararo kompetentlik" va "madaniyatlararo aloqalar tajribasi"ga ko'ra rivojlanadigan kognitiv jarayonlarni tashxislash uchun shaxsning turli vaziyatlarni tahlil qilishi hamda muloqot xususiyatlari shakllanganligini aniqlash mezonlariga yo'naltirilgan "kognitiv moslashuvchanlik" darajalari belgilangan usullar moslashtirilgan va tanqidiy tafakkur testlari ishlab chiqilgan;

madaniyatlararo munosabatlar va noaniq vaziyatlar sharoitida talabalardagi qaror qabul qilish jarayonining tarkibiy komponentlari bo'lgan "emotsional barqarorlik", "strategik ko'nikma", "ijtimoiy-madaniy idrok" namoyon bo'lishidagi cheklanganlik tufayli ijtimoiy va hissiy holatlarning takrorlanish chastotasi tartiblangan;

madaniyatlararo ta'sirchanlikning turli gradatsiyalariga ko'ra, talabalarning ma'lumotlarni "Taxminlar", "Dalillar", "Deduktiv xulosalar", "Mantiqiy hukmlar" mezonlari asosida madaniy va emotsional kontentni aniqlash, turli qarashlarni bir qarorda umumlashtirish muhimligi tufayli tanqidiy tafakkurning empatik, kognitiv moslashuvchanlikning integrativ fikrlash va qaror qabul qilishning tajriba orqali orttirilgan bilimga asoslangan komponentlari dalillangan;

kognitiv jarayonlarni rivojlantirish modeli shaxsning madaniy pozitsiyasi qaror qabul qilish strategiyasiga bog'liq tanlovdan qoniqish darajasini kontent tahlil qilish orqali "tanqidiy tafakkur", "kognitiv moslashuvchanlik", "madaniyatlararo

ta'sirchanlik", "madaniyatlararo aloqadorlik tajribasi" komponentlarining o'zaro integratsiyalash asosida ишлаб чиқилган;

talabalarda tanqidiy tafakkurning rivojlanganlik darajasi asosida noaniq vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilishning irodaviy, ratsional, emotiv, strategik ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga uyg'un namoyon bo'lishiga ko'ra qaror samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar differentsiyalashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida qaror qabul qilish usullari ishlab chiqilib, uni qo'llash taktikasi tavsiya qilingan;

kognitiv sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar majmuasi ishlab chiqilgan va yangi texnologik voqelikka moslashish usullari hamda metodlari iyerarxik jihatdan tartiblangan;

madaniyatlararo kompetentlikka ko'ra talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan, madaniy muhitga moslashtirilgan usullar orqali ularning aqliy operatsiyalarni bajarish sohasidagi imkoniyatlari aniqlangan;

qaror qabul qilishning salbiy hodisalarini bartaraf etish, ijtimoiy va kognitiv fazilatlarni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan;

talabalarining madaniyatlararo aloqadorlik tajribasini aniqlaydigan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma ishlab chiqilgan bo'lib, tashxis qilish mezonlari tasniflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi usullarning qo'llanilgani, tadqiqot obekti sifatida turli oliygohlar sinaluvchilari guruhining reprezentativligi, empirik qiymatlar matematik-statistika usullari asosida tahlil qilingani, ma'lumotlar "MS Excel", "SPSS 22.0", "Atlas t i" dasturlari yordamida qayta ishlangani, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asoslab berilgan xulosalar va tavsiyalar madaniyatlararo kompetentlikning ijtimoiy-psixologik hamda kognitiv, kros madaniy, etno va shaxs kabi yo'nalishlarning uslubiy-psixologik asoslarini takomillashtirishga, mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslarini boyitishga, shaxs tanqidiy tafakkuri va kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida «Umumiy psixologiya», «Kognitiv psixologiya», «Kros madaniy psixologiya», «Shaxs psixologiyasi», «Din psixologiyasi. Etnopsixologiya» va «Psixodiagnostika» fanlarini ilmiy manbalar bilan boyitishda hamda shaxsning tanqidiy tafakkuri va kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarining muammoni hal qilish strategiyasini rivojlantirish va qaror qabul qilish sifatini oshirish, madaniyatlararo kompetentlikni ijtimoiy-psixologik omil sifatida aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar doirasida qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omillari borasida olingan natijalar asosida:

talabalarda “madaniyatlararo kompetentlik” hamda “madaniyatlararo aloqalar tajribasi” asosida rivojlanadigan kognitiv jarayonlarni tashxislash uchun shaxsning turli vaziyatlarni tahlil qilishi va muloqot xususiyatlari shakllanganligini aniqlash mezonlariga yo‘naltirilgan “tanqidiy tafakkur”, “kognitiv moslashuvchanlik”, “qaror qabul qilish” darajalari belgilangan usullar moslashtirilgan va tanqidiy tafakkur testlari ishlab chiqishga doir takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 20-maydagi PM-133-sonli buyrug‘iga asosan “Din psixologiyasi. Etnopsixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 25-maydagi PM-133a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning kognitiv xususiyatlari: tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik, qaror qabul qilishni rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

madaniyatlararo munosabatlar va noaniq vaziyatlar sharoitida talabalardagi qaror qabul qilish jarayonining tarkibiy komponentlari bo‘lgan “emotsional barqarorlik”, “strategik ko‘nikma”, “ijtimoiy-madaniy idrok” namoyon bo‘lishidagi cheklanganlik tufayli ijtimoiy va hissiy holatlarning takrorlanish chastotasini tartiblashga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 20-maydagi PM-133-sonli buyrug‘iga asosan “Din psixologiyasi. Etnopsixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 25-maydagi PM-133a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omilini o‘rganishga sharoit yaratilgan;

kognitiv jarayonlarni rivojlantirish modeli shaxsning madaniy pozitsiyasi qaror qabul qilish strategiyasiga bog‘liq tanlovdan qoniqish darajasini kontent tahlil qilish orqali “tanqidiy tafakkur”, “kognitiv moslashuvchanlik”, “madaniyatlararo ta’sirchanlik”, “madaniyatlararo aloqadorlik tajribasi” komponentlarining o‘zaro integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid taklif Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 20-maydagi PM-133-son buyrug‘iga asosan “Din psixologiyasi. Etnopsixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024 yil 25 maydagi PM-133a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik darajasi turli bosqichlarida hal qilivchi qaror qabul qilishning kontent va sifat tahlillarini olib boorish zaruratini asoslashga erishilgan;

madaniyatlararo ta’sirchanlikning turli gradatsiyalariga ko‘ra talabalarning ma’lumotlarni “Taxminlar”, “Dalillar”, “Deduktiv xulosalar”, “Mantiqiy hukmlar” mezonlariga ko‘ra madaniy idrokni baholash muhimligi tufayli tanqidiy tafakkur darajalari va kognitiv moslashuvchanlikning integrativ firklash, qaror qabul qilishning tajriba orqali olingan bilimlarga asoslangan komponentlari dalillashga oid ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya

o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 20-maydagi PM-133-son buyrug‘iga asosan “Din psixologiyasi. Etnopsixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024 yil 25 maydagi PM-133a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada sinaluvchilarning qaror qabul qilish vaziyatlarini tahlil qilishga yordam bergan;

talabalarda tanqidiy tafakkurning rivojlanganlik darajasiga asosida noaniq vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilishning irodaviy, ratsional, emotiv, strategik ijtimoiy psixologik xususiyatlarga uyg‘un namoyon bo‘lishiga ko‘ra qaror samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni differentsiyalashtirishga oid ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 20-maydagi PM-133-sonli buyrug‘iga asosan “Din psixologiyasi. Etnopsixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy-markazining 2024-yil 25-maydagi PM-133a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kognitiv xususiyatlarning namoyon bo‘lishini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik modelni ishlab chiqish orqali tadqiqot empirik bosqichlarining ahamiyatini qayd etish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish va mavzu doirasida monografiya chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (DSc) doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan milliy jurnallarda 9 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 262 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, obyektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Shaxs kognitiv jarayonlarining nazariy tadqiqi**” deb nomlangan bo‘lib, unda kognitiv jarayonlar tarkibiga kiruvchi tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik, qaror qabul ko‘nikmasining psixologik asoslari keltirilgan. Kognitiv jarayonlarning ijtimoiy-psixologik nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda kognitiv jarayonlarni tadqiq etishning psixologik masalalari atroflicha yoritilgan.

Kognitiv ko‘nikmalar masalalariga kelsak, mutaxassislar ularni tanqidiy

tafakkurning tarkibiy asoslarini interpretatsiya (talqin) qilish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘zini o‘zi boshqarish bilan izohlashadi. Ushbu xususiyatlarni, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda ishtirok etadigan kognitiv ko‘nikmalar, aqliy qobiliyatlar deb ta’riflash lozim bo‘lib, tahlillarga ko‘ra, talqin – “keng ko‘lamli tajribalar, vaziyatlar, ma’lumotlar, voqealar, hukmlar, konventsiyalar, e’tiqodlar, qoidalar, tartiblar yoki mezonlarning ma’nosini yoki mohiyatini tushunish va ifoda etishdir.

P.Fesion o‘zining “Tanqidiy tafakkur – bu nima va u nima uchun hisobga olinadi?” deb nomlangan kitobida, undan foydalanmaslikning zararli oqibatlari qatorida quyidagilarni keltiradi: -foйда topmaslik, -ish yo‘qotish, -darz ketgan ijtimoiy munosabatlar, -o‘ziga ishonchsizlik, -noto‘g‘ri qarorlar, -samarasiz moliyaviy yo‘qotishlar, -oilaviy zo‘ravonlik, -o‘z joniga qasd qilishga urinishlar, -ajralish, -akademik muvaffaqiyasizliklar va h.k. (Peter A. Facione, 2013).

Tanqidiy tafakkur, barkamol shaxsning asosiy xususiyati sifatida – o‘z opponentini tinglay olishi; u keltirgan barcha dalillarni hisobga olib, faktlarni tahlil qila olishi, so‘ngra muammoning dolzarbligini aniqlash va keyin xulosalar chiqarish qobiliyatidir; – o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha mavjud nazariyalarni aniq baholashi, baholangan va o‘rganilgan masalani hayotga tadbiiq qilish qobiliyatidir. Ushbu amaliyotning barcha jihatlari o‘rinli hisoblanib, uning bo‘laklari asosida yaxlit tasavvurni qayta yaratish qobiliyati muhimdir.

Kognitiv moslashuvchanlik, birinchi navbatda, tadqiqotda kommunikator umumiy kompetentligining omili sifatida ko‘rib chiqilgan va boshqa shaxsiy xususiyatlar bilan taqqoslanib kelingan, ammo quyida ko‘rsatilgandek, kognitiv moslashuvchanlik ko‘pincha asosiy o‘zgaruvchidir va ushbu tadqiqot natijalarida kommunikativ xususiyatlarning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar R.Ruben va M.Martin muloqot jarayonini o‘rganish uchun suhbat ta’sirchanligi, og‘zaki tajovuz va bilvosita shaxslararo tajovuz ta’siri asosida shakllanadigan kognitiv moslashuvchanlikni tahlil qildilar. Ruben va Martin o‘z tadqiqotlari suhbat sezgirligi, og‘zaki tajovuz, bilvosita shaxslararo tajovuz va kognitiv moslashuvchanlikning asosiy bahosining tadqiqlari o‘z ichiga olgan. Ular suhbat sezgirligi, verbal tajovuzkorlik yoki noverbal ta’sirchanlik, bilvosita shaxslararo tajovuzkorlik kabi xususiyatlar o‘rtasida ahamiyatli munosabatlarni topa olmadilar, ammo ular kognitiv moslashuvchanlikning suhbat ta’sirchanligi bilan ijobiy korrelyatsiyasini, bilvosita shaxslararo tajovuz bilan kognitiv moslashuvchanlikning salbiy korrelyatsiyasini aniqladilar. Bu singari natijalarni izohlash uchun, muloqot ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarda suhbat kontekstini va hukmbardorlik bilan qilingan munosabatlarni yaxshi anglashini hamda suhbat jarayonidan ko‘ra, uning ta’siridan ko‘proq ma’no olganliklarini bildirdilar.

Tadqiqot talabalarning ijtimoiy xususiyati deb baholanadigan madaniyatlararo kompetentlikni va madaniyatlararo aloqadorlik tajribasini, ularning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish omillari da’vo qilishi mumkin.

Madaniyatlararo kompetentlik bu – o‘zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish tartibidir.

“Hozirgi kunda o‘zining madaniyatlararo kompetentligi va munosabatlarida barcha zarur fazilatlarga hamda o‘ziga xos malakaga ega bo‘lgan kishi g‘alaba qozonadi. Kompetentlikning barcha talablariga javob beradigan bitiruvchilar barcha universitetlarning muvaffaqiyatli ta‘limi va yutuqlari natijasidir. Kasbiy, muloqot va ijtimoiy fazilatlardan tashqari, kompetentlik madaniyatlararo munosabatlar ishtirokchilaridan moslashuvchanlik qobiliyatlarni talab qiladi, bu esa har bir muloqot turini, so‘zsiz samarali yakunlashga olib keladi. Moslashuvchanlik qobiliyatlar – bu hamkorining uslubida fikr yuritish qobiliyatidir” (Salomova G.Sh., 2015).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Madaniyatlararo kompetentlik kontekstida talabalarning kognitiv jarayonlari darajasi”** deb nomlanadi.

Madaniyatlararo kompetentlik – bu madaniyatlararo muhitda samarali ishlash, o‘rganish va o‘qitish qobiliyatidir. Madaniy farqlarni qabul qilish, boshqa madaniyat a‘zolari bilan yuqori darajada muloqot o‘rnatish va tillarni yaxshi bilish qobiliyatidir. Bunday fazilatlarning egasi o‘z qobiliyatlari va ko‘nikmalarini takomillashtirish ustida, doimiy ravishda, ishlashni davom ettirish imkoniyati va istagiga ega. Madaniyatlararo muloqot orqali shakllangan xususiyatlar, masalan, qaror qabul qilish qobiliyati, aniq bo‘lmagan, barcha yangi narsalarni o‘rganishga intilish qobiliyati tafakkur bilan bog‘liq yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash – bu nostandart fikrlash usullari asosida vaziyatni tahlil qilish qobiliyati bo‘lib, tadqiqot faraziga ko‘ra, madaniyatlararo munosabatlarda tajribaga ega bo‘lgan shaxs tanqidiy tafakkurga va vaziyatni oqilona tahlil qilishga intiladi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borilgan bo‘lib, 1-bosqich, 1600 nafar talabaning kognitiv jarayonlari 2022-yil may-iyun oylarida o‘rganildi va 924 nafar talabada aniqlangan kognitiv jarayonlarning madaniyatlararo kompetentlik hamda madaniyatlararo aloqadorlik kabi omillari anqlandi;


2-bosqich, 2023-yil yanvar-fevral oylari (uch yarim hafta) davomida 47 nafar (tajriba) va 48 nafar (nazorat) ishtirokchidan iborat guruhlarda qaror qabul qilish jarayonlari tahlili hamda muhokamasi bo‘lib o‘tdi;

3-bosqich tadqiqot dasturi asosida, tajriba (47) va nazorat (48) guruhilari ishtirokida 2023-yil oktyabr-noyabr oylari (to‘rt hafta) mobaynida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish amaliyoti olib borildi hamda tadqiqot metodlarining samaradorligi o‘rganildi. Talabalarning tanqidiy tafakkur darajasi va kognitiv moslashuvchanligini aniqlash uchun tanlangan shkalalar, modellar va ishlab chiqilgan testlar maqsadga muvofiq qo‘llanilishi hamda olingan natijalar asosida keyingi tadqiqot bosqichlarini aniqlash ishning asl mohiyatini belgilashi ta’kidlangan.

1-bosqich talablarini amalga oshirish uchun Tanqidiy tafakkur testlari ishlab chiqildi. Testlar jami 51 ta mulohazadan iborat bo‘lib, ular “Taxminlar”, “Dalillar”, “Mantiqiy hukmlar” va “Deduksiyadan” iborat. Har bir to‘g‘ri javobga 1 ball beriladi.

Talabalar to‘rtta seriyali vazifalarni bajarishlari kerak.

Quyida sinaluvchilarning tanqidiy tafakkur testlarini bajarish bo‘yicha bergan javoblarini chastota grafigi shaklida taqdim etiladi.




1- rasm. Chastotali grafikda ballar taqsimoti.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 1600 ishtirokchining hech biri bir vaqtning o‘zida barcha kuzatuvlarda mukammal natija ko‘rsatmagan. Chapda va o‘ngda sezilarli assimetriya yo‘qligi va olingan ballarning chastotasi grafikning o‘rtasida joylashganligini, inobatga olib, bosh ko‘plikning taqsimlanishi taxminan normal ekanligini aytish mumkin. Demak, talabalar testlarni o‘zlashtirish va uning vazifalarini bajarish yuzasidan bilimga ega ekanliklari o‘z isbotini topishi bilan birga, mazkur bilimlarni rivojlantirish va oshirish lozimligi namoyon bo‘ldi. Ya’ni mukammal javob bergan talabalar yo‘q edi.

Muammo shundaki, mezonlar orqali tanqidiy tafakkur darajasini aniqlash uchun maxsus yaratilgan testlardan foydalanishda ishonchlilik darajasini qo‘lga kiritish mumkinmi? Ushbu savolga javobni ta‘minlash maqsadida, bir qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi, natijada metodning samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va ishonchliligi Alfa Kronbaxning ishonchlilik darajasini aniqlash mezonida 0,7 yakuniy qiymat bilan tasdiqlandi. Tajriba uchun respublikaning turli oliygohlaridan turli yoshdagi va yo‘nalishdagi talabalar tanlab olindi. Tajribada 7535 sinaluvchi ishtirok etdi. Ushbu natija bizga, keyingi tadqiqotlarda tanqidiy tafakkurning eksperimental dasturidan foydalanishni davom ettirish huquqini beradi.


Tadqiqot madaniyatlararo kompetentlikni shaxsning kognitiv jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy omili sifatida o‘rganishga qaratilgan edi. Bu faraz munozaraliligi sababi shundaki, kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda ijtimoiy xususiyatlarning o‘rni doimo ahamiyatsiz bo‘lib kelgan.

Tadqiqot ishtirokchilarining madaniyatlararo ta‘sirchanlik modeli bo‘yicha mustaqil tanlanmalarga ajratishda quyidagilar aniqlandi: “rad etish guruhi n=212; “himoya” guruhi n=132; “minimallashtirish” n=265; “qabul qilish” guruhi n=420; “adaptatsiya” guruhi n=234; guruh “integratsiya” n=162; guruh “kompetentlik” n=174.



2-rasm. Madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli guruhlari.

Ushbu rasmga asoslanib, biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: sinaluvchilarning asosiy qismi, ya'ni 26,2% i boshqa madaniyat, boshqa til va madaniyatlararo aloqaga nisbatan tolerant. Ular "qabul qilish" guruhida joylashgan va bu fakt shuni ko'rsatadiki, 1600 talabadan 420 nafari etnorelativizmning dastlabki bosqichini egallashgan. Talabalar o'zlarining xatti-harakatlarida madaniy farqlar va madaniyatlararo muloqotni qabul qilishga hamda moslashtirishga tayyorligini ko'rsatishgan. Shuningdek, so'rovda qatnashgan talabalarning eng kichik qismi o'zini madaniyatlararo munosabatlar dinamikasida himoyalangan his qiladi va madaniyatlararo aloqa vaqtida himoyaga ehtiyoj sezadi. Uch gradatsiya: rad yetish, himoya qilish va minimallashtirish etnotsentrizmni aks ettiradi. Qolgan to'rt gradatsiya: qabul qilish, moslashish, integratsiya va kompetensiya etnorelativizmga tegishli bo'lib hisoblanadi.



3-rasm. Madaniyatlararo ta'sirchanlik gradatsiyalarining sinaluvchilarda aniqlangan foizi.

Ushbu guruhlardagi tanqidiy tafakkur darajasini alohida qiyoslash orqali o‘rganish lozim. Bu holda, ko‘p sonli o‘zgaruvchilarning ko‘p o‘lchovli funksiyaga ega bo‘lgan ikki faktorli tahlilni o‘tkazish tavsiya etiladi, bu guruhlar hajmini va aniqrog‘i tanlanmalarni boshqarishni talab qiladi. Natijalarni dispersion tahlil yoki Kruskal Uolis mezonida tahlil qilish uchun taqqoslangan guruhlarining bir xil hajmi talab qilinganligi sababli, barcha guruhlarining hajmini ma’lum qoidalarga muvofiq sozlash zarurati tug‘ildi.

Ushbu kuzatuvlarning ahamiyati to‘g‘risida bahslar nazariy bobdan o‘rin olgan va unda, yoki bu hodisani boshqa bir hodisaning rivojlanishida omil, dalil sifatida ta’riflagan tadqiqotlar mavjud. Bu yerda, talabalarning bilim qobiliyatlarini tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik va qaror qabul qilish sifatida ifodalash tavsiya etiladi. Bizning holatda, talabalarning ijtimoiy xususiyati deb baholanadigan madaniyatlararo kompetentlikni, ularning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish omillaridan biri deb da’vo qilishi mumkin. Keyingi jarayonlarda ushbu masalani yuzasidan bir nechta muhim tadqiqotlar o‘rin olgan.

1-jadval.

Omilar va ta’sirlar o‘rtasidagi test (n=924).

Omil	Bog‘liq o‘zgaruvchilar	F-qiymat	Ahamiyati
MA tajriba	Taxminlar	2.243	.032
	Dalillar	5.108	.000
	Deduksiya	.422	.793
	Mantiqiy hukmlar	1.219	.045
MTRM	Taxminlar	3.998	.001
	Dalillar	10.121	.000
	Deduksiya	6.741	.000
	Mantiqiy hukmlar	2.517	.020
MA tajriba* MTRM	Taxminlar	2.959	.032
	Dalillar	6.019	.000
	Deduksiya	1.754	.012
	Mantiqiy hukmlar	2.878	.056

Ushbu jadvaldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: madaniyatlararo aloqadrlik tajribasi omili hamda Taxminlar o‘zgaruvchisi o‘rtasidagi farq $p=0,05$ da ahamiyatli va Dalillar mezonidagi farq $p=0,01$ da ahamiyatli hamda mantiqiy xulosalar mezonida farq yo‘q.

MTRM omili Mantiqiy xulosalar bilan $p=0,05$ da boshqa barcha holatlarda $p=0,01$ da ahamiyatli qiymatga ega.

Madaniyatlararo aloqa tajribasi va madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli omillari o‘zaro bog‘liq o‘zgaruvchilardan quyidagicha farq qiladi: taxminlar, dalillar, deduksiya va mantiqiy xulosalar bilan $p=0,05$ va $p=0,01$ qiymatlar bilan ahamiyatni qayd etdi.

924 ishtirokchi bilan o‘tkazilgan eksperiment ma’lumotlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, tanqidiy tafakkur mezonlari 99 % va 95 % darajasida madaniyatlararo aloqa va madaniyatlararo kompetentlik kabi ijtimoiy tashqi hodisalar bilan belgilanishi mumkin.

Madaniyatlararo munosabatlar tajribasi va madaniyatlararo ta'sirchanlik bilan hamohanglikda deduktsiya, mantiqiy xulosalar mezonlarida ahamiyatli farq ko'rsatmadi. Keyingi bosqichlarda, tadqiqot, omillarni nazorat qilish va aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi hamda shunga mos ravishda ushbu omillarning rolini ochib beradi.

Talabalarning kognitiv moslashuvchanligiga omillarning ta'sirini o'lchash tadqiqotning keyingi bosqichida amalga oshirilgan. Olingan ma'lumotlar quyida jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

MTRM omilining kognitiv moslashuvchanlikka ta'siri (n=924).

Dispersiya	Erkinlik bosqichi	O'rtacha kvadrat	F-qiymat	Ahamiyat
Guruhlararo dispers.	6	2032	39,3	0,00
Guruh ichidagi disp.	916	51		
Jami:	922			

Madaniyatlararo sezgirlik ijtimoiy omil sifatida, talabalarning kognitiv moslashuvchanligiga ta'sir qiladi, bu fakt 0,001 darajasida tasdiqlandi.

Tadqiqot tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlikni o'rganish hamda rivojlantirish orqali ijtimoiy muhim omillar rolini belgilash va asosiy urg'uni ularga qaratish zarurartini oydinlashtirdi. Omillarning o'zaro aloqadorligi va ularning kognitiv jarayonlarga ta'siri belgilandiki, ushbu muhim amaliyot tadqiqot hisoblanadi.

Shunday qilib, quyida mustaqil ikkita o'zgaruvchi va bog'liq o'zgaruvchilarning ikki faktorli tahlili jadvali keltirilgan. Ushbu tadqiqot ko'p omilli bo'lgan ikki faktorli tahlildir.

3-jadval.

Omillarning ko'po'lchovli tahlili

Effekt	F-qiymat	Ahamiyati
MA tajribasi	1,66	.046
MTRM turlari	5,05	.000
Tajriba va MTRM	2,14	.000

Effektlar yoki omillarning o'zaro ta'sirining qiymati $p=0.05$ da ahamiyatli. Boshqa omillar bilan ahamiyati 0,001 dan past. Dispersiyalarning bir xilligi, tanqidiy tafakkur mezonlari Levenning qiymati orqali dispersion tahlilning ikkinchi asosiy gipotezasini sinab ko'rish uchun talqin qilindi. Taxminlar: $f=1,82$; $p=0,06$; dalillar: $F=1,91$; $p=0,53$; deduktsiya: $F=1,74$; $p=0,06$; mantiqiy hukmlar: $f=1,93$ $r=0,58$ shunday qilib, barcha to'rt holatda ham dispersiyalarning bir xilligi $p>0,05$ qiymat bilan qabul qilindi. Tadqiqot davomida o'zgaruvchilarining ta'sir vositalari va dispersiyalarining o'zaro bog'liqligini ikkinchi usulda tekshirish kerak emas, chunki dispersiyalarning yaqinligi haqidagi ikkinchi asosiy gipoteza o'rnatildi.

Omillar va ta'sirlar o'rtasidagi test.

Omil	Bog'liq o'zgaruvchilar	F-qiymat	Ahamiyati
MA tajriba	Taxminlar	2.243	.032
	Dalillar	5.108	.000
	Deduksiya	.422	.793
	Mantiqiy hukm	1.219	.045
MTRM	Taxminlar	3.998	.001
	Dalillar	10.121	.000
	Deduksiya	6.741	.000
	Mantiqiy hukm	2.517	.020
MA tajriba* MTRM	Taxminlar	2.959	.032
	Dalillar	6.019	.000
	Deduksiya	1.754	.012
	Mantiqiy hukm	2.878	.051

Ushbu jadvaldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: madaniyatlararo aloqada tajribasi omili hamda Taxminlar o'zgaruvchisi o'rtasidagi farq $p=0,05$ da ahamiyatli va Dalillar mezonidagi farq $p=0,01$ da ahamiyatli hamda Mantiqiy xulosalar mezonida farq yo'q.

MTRM omili Mantiqiy xulosalar bilan $p=0,05$ da boshqa barcha holatlarda $p=0,01$ da ahamiyatli qiymatga ega.

Madaniyatlararo aloqa tajribasi va madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli omillari o'zaro bog'liq o'zgaruvchilardan quyidagicha farq qiladi: Taxminlar, Dalillar, Deduksiya hamda Mantiqiy hukmlar bilan $p=0,05$ va $p=0,01$ qiymatlar bilan ahamiyatni qayd etdi.

924 ishtirokchi bilan o'tkazilgan eksperiment ma'lumotlariga asosan shuni aytish mumkinki, tanqidiy tafakkur mezonlari 99 % va 95 % darajasida madaniyatlararo aloqa va madaniyatlararo kompetentlik kabi ijtimoiy tashqi hodisalar bilan belgilanishi mumkin.

Madaniyatlararo munosabatlar tajribasi va madaniyatlararo ta'sirchanlik bilan hamohanglikda deduksiya, mantiqiy hukmlar mezonlarida ahamiyatli farq aniqlanmadi. Keyingi bosqichlarda, tadqiqot, omillarni nazorat qilish va aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi hamda shunga mos ravishda ushbu omillarning rolini ochib beradi.

Talabalarning kognitiv moslashuvchanligiga omillarning ta'sirini o'lchash tadqiqotning keyingi bosqichida amalga oshadi. O'rganilgan ta'sirlar quyida jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

MTRM omilining kognitiv moslashuvchanlikka ta'siri (n=924).

Dispersiyalar	Erkinlik darajasi	O'rtacha qiymat	F-qiymat	Ahamiyati
Guruhlararo disper.	6	2032	39,3	0,00
Guruh ichidagi disp.	916	51		
Jami	922			

Madaniyatlararo sezgirlik ijtimoiy omil sifatida, talabalarning kognitiv moslashuvchanligiga ta'sir qiladi, bu dalil 0,001 darajasida tasdiqlandi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida "intervyu" va "kuzatish" usullari qo'llanildi, ularning natijasi sifatli tahlil qilinganda, madaniyatlararo muloqotning 47 ishtirokchisi o'zining qaror qabul qilish strategiyalarini yoritib berdi. Har bir ishtirokchi qaror qabul qilish jarayonini aks ettiruvchi, o'z tajribasini taqdim etib, tajribada hisobga olingan ushbu hodisa bilan bog'liq xususiyatlarni qayd qildi. Tadqiqot tafsilotlari keyingi bobda keltirilgan.

Ushbu jadvalda tanqidiy tafakkur darajalarida, shaxsiy va o'zga madaniyatlarga nisbatan xulq-atvor ko'rinishlari "Atlas ti" dasturida o'zaro kesishuv variatsiyasi taqdim etiladi.

6-jadval.

Tanqidiy tafakkur va madaniy pozitsiyalarining o'zaro kesishuvi (n=47).

Xususiyatlar	TT O'rtachadan past	TT o'rtacha	TT o'rtachadan yuqori
Begonalashuv	13	7	5
Madaniy idrok	5	7	8
Izolyatsiya	8	5	5
Stereotiplar	12	6	3
O'z madaniyatining kamchiliklarini baholash qobiliyati	3	7	12
Madaniy bilimlarni qo'llash	4	8	10

Tanqidiy tafakkurning turli darajalariga (o'rtachadan yuqori, o'rtacha va o'rtacha darajadan past) ega bo'lgan sinaluvchilar madaniyatlararo sharoitda qaror qabul qilish ko'nikmalari va tajribalarini belgilangan tartibda namoyish etdilar.

"Begonalashuv" va tanqidiy tafakkurning turli darajalarida hodisalarni tahlil qilganda, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ko'rish mumkin. Qaror qabul qilish jarayoni tanqidiy tafakkurning turli bosqichlarida xarakterli ravishda farq qiladi. Ijtimoiy va madaniyatlararo ko'nikmalardan begonalashish hamda tanqidiy tafakkurning turli darajalarida o'zaro kesishuvlarini aniqlash orqali o'rganiladi.

Tanqidiy tafakkurning past darajasiga ega bo'lgan sinaluvchilarning qaror qabul qilishiga begonalashuvning salmoqli hissasi, ushbu jarayonning qoniqarsiz va asossiz yakun topishiga sabab bo'ldi. Tanqidiy fikrlashning past darajasini egallagan

ishtirokchilar qaror qabul qilishda kognitiv va xulq-atvor jarayonining salbiy hamda qat'iyatsiz ko'rinishlarini namoyon qilishdi. Bu ularning shaxsiy hikoyalari va qaydlari orqali namoyon bo'ldi.

Qaror qabul qilish jarayonida tanqidiy tafakkurning juda past darajalarini ko'rsatgan qaror qabul qilish subyekti tanish va notanish vaziyatlardan begonalashishga olib kelishi sababli, qabul qilingan yechimlar o'z samarasini ko'rsata olmadi. Begonalashuv pozitsiyasiga esa bo'lgan sinaluvchi qaror qabul qilishda osonlikcha manipulyatsiya qilinadi, chunki u vaziyatni va taqdim etilgan ma'lumotlarni tanqidiy hamda mantiqiy baholash qobiliyatiga ega emas. Ijtimoiy muhitning barcha epizodlari bilan tanish emas. Shunday qilib, uning harakatlari QQQ jarayoniga jalb qilinganida o'zi tomonidan refleksiv baholanmaydi. U o'z harakatlarini va ularning oqibatlarini baholash hamda tahlil qilish qobiliyatini yo'qotadi. Ammo vaqt o'tishi va voqea-hodisalar o'z dolzarbligini yo'qotishi bilan, mazkur xususiyat namoyondalari vaziyatni tahlil qilishga kirishadilar.

Ishtirokchilarning ijtimoiy va kognitiv fazilatlarida ham, joriy qarorlardan qoniqish darajasida ham farqlar kuzatilishi mumkin. Albatta, quyidagi aniq farqlarni sezmaslik mumkin emas:

- Tillarni mukammal bilish;
- Turli xil kognitiv uslublardan foydalanish;
- Turli madaniy va ijtimoiy resurslardan foydalanish qobiliyati;
- Ko'p sonli muammolarni hal qilish tajribasiga ega bo'lish;
- Faqat o'z qobiliyati va kuchiga tayanish.

Ko'rsatilgan xususiyatlar to'plami ularning namoyon bo'lishi va qayd etilishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tadqiqotning ikki tajriba guruhleri kesimida solishtiriladi, ya'ni muntazam madaniyatlararo aloqadorlik jarayoniga jalb etilgan tadqiqot guruhi va madaniyatlararo aloqa jarayonida bo'lmagan, biroq noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish epizodlarini taqdim qilgan nazorat guruhi ishtirokchilari. Quyidagi jadvalda tajriba guruhleri qaror qabul qilish jarayonida qayd etilgan fazilatlar tartiblangan.

7-jadval.

Eksperimental va nazorat guruhlarining qaror qabul qilish jarayonida aniqlangan xususiyatlarning reytingi.

Tahlil elementi: xususiyatlar	Guruh bo'yicha reyting xususiyatlari	
	Tadqiqot guruh. (n=45).	Nazorat guruh (n=47).
Vaziyatni tahlil qilish	7.5	18.5
Muqobil variant	11.5	26.5
Harakatsizlik	17	10
Tashvish	24	28
Minnatdorchiilik	23	11.5
Xarajatli qarorlar	29	4
Buysunish	30	8
Tavakkal qilmaslik	26.5	11.5
Vaziyatni boshqarish	7.5	14.5
Maqsad sari ishlash	5.5	14.5

Xavfli vaziyatga duch kelish	26.5	16.5
Vaziyatni kuzatish	2.5	16.5
Vaziyatni qabul qilmaslik	28	1
Beparvolik	31	5
Odamlarni boshqarish	11.5	18.5
Mumkin bo'lgan xavflarni taxmin qilish	2.5	29
Qobiliyatlarni qayta baholash	21	2
Rejalashtirish	18.5	30
Yo'qotish	22	6
Sabrlilik	18.5	13
Ratsionallik	9.5	24.5
Refleksiya	9.5	23
O'z-o'zini tanqid qilish	14.5	8
O'zini anglash	2.5	26.5
Ishontirish qobiliyati	20	24.5
Shubha	14.5	3
Qo'rquv	25	8
Intilish	5.5	21.5
Puxtalik	2.5	21.5
Qoniqish darajasi	16	31
Vaqtни boshqarish	13	20
	496	496

Ushbu hodisalar ularning paydo bo'lish chastotasi bo'yicha oshib borish tendensiyasi asosida tartiblanadi.

Shunday qilib, noaniq vaziyatlarda yoki madaniyatlararo aloqada o'tkazilgan tadqiqot va nazorat guruhlar uchun qarorlarni qabul qilish tahlili shuni ko'rsatdiki, birinchi (madaniyatlararo tajribaga ega ishtirokchilar) guruhda vaziyatni nazorat qilish, puxtalik, o'zini anglash va mumkin bo'lgan xavflarni oldindan bilish kabi hodisalarning chastotasi ko'paygan. Shu bilan birga, nazorat guruhida (madaniyatlararo tajribaga ega bo'lmagan) bunday hodisalarning paydo bo'lishi ancha kam uchraydi. Shuningdek, madaniyatlararo aloqalar tabiiy ravishda o'rnatiladigan guruhlarda, ya'ni tadqiqot guruhida maqsadga intilish ikkinchi o'rinda, nazorat guruhida shunga o'xshash xususiyatlarni qo'llash deyarli oxirgi o'rinda.

Tajriba boshida nazorat guruhi ishtirokchilari uchun sun'iy ravishda yaratilgan, noaniq sharoitlarda qaror qabul qilinishi murakkabligi kuzatildi, chunki ular madaniyatlararo tajribaga ega emas edilar. Zudlik bilan qaror qabul qilish, zarur bo'lgan vaziyatlarni qabul qilmaslik ushbu guruh uchun birinchi o'rinda edi. Shunga ko'ra, ushbu hodisa bilan bog'liq "qo'rquv", "shubha", "xavfdan qo'rqish", "ehtiyotsizlik" kabi xususiyatlarning chastotasi oshdi. Biroq nazorat guruhida "qobiliyatlarni ortiqcha baholash" hodisasi eng keng tarqalgani ma'lum bo'ldi. Ushbu hodisa shuni ko'rsatadiki, noaniq vaziyatlarda ishtirokchilar o'zlarining kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini yuqori baholagan bo'lishi mumkin, bu shaxsning o'zini yuqori baholashida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa notanish vaziyatni yuqori darajada rad etish jarayonida aniqlandi. Bu shuni ko'rsatadiki, tadqiqot davomida tajriba ishtirokchilari uchun tashkillashtirilgan ssenariylarga ikki tomonlama munosabatda bo'lishgan. Eksperimental muhit va tadqiqotchining mavjudligi natijaga ta'sir qilgan bo'lishi

mumkin. Ishtirokchilar idrokining ambivalentligi “o‘z-o‘zini tanqid qilish” kabi sifatning yuqori darajada yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Ushbu sifat tadqiqot guruhida o‘rtacha chastotada ekanligi aniqlandi.

“Ratsionallik” va “Refleksiya” eksperimental guruhda, yuqori o‘rinda, nazorat guruhida esa oxirgi o‘rinda turadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “minnatdorchilik”, “xayriya” va “sabrlik” nazorat guruhida eksperimental guruhga qaraganda yuqorida ekani qayd etildi.

Xodisalarning chastotasi ikki guruhda farq qiladi, bu yerda madaniyatlararo aloqaning ijtimoiy sharoitlari tabiiy ravishda yuzaga keldi va bu shartlar tadqiqot tomonidan o‘rnatildi hamda nazorat qilindi.

Talabalarning tanqidiy tafakkuri va kognitiv moslashuvchanligiga madaniyatlararo tajriba hamda madaniyatlararo ta’sirchanlikning roli faktorli tahlilda aniqlandi.

Kuzatish va suhbat usullari bilan to‘plangan ma’lumotlarni sifatli tahlil qilish, aniqlangan xususiyatlar va hodisalarni talqin qilish, ularning paydo bo‘lish sabablarini izlash va qaror qabul qilish jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish imkonini berdi.

Shunday qilib, qaror qabul qilish dinamikasini bilish maqsadida noaniq va madaniyatlararo sharoitlarda QQQ jarayoni solishtirildi va keyingi bosqich tadqiqiy ko‘lami belgilandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qaror qabul qilish kognitiv komponentlarining madaniyatlararo va noaniq vaziyatlardagi dinamikasi”** deb nomlangan bo‘lib, turli madaniyatlararo vaziyatlarda muammolarni hal qilishning madaniy qadriyatlar, me’yorlar va kutishlardagi tafovutlar tufayli farqlanishi mumkinligi aytilgan. Ushbu farqlar aloqa shakllariga, fikrlash usullariga, nizolarga yondashuvlarga va hatto afzalliklarni baholashga ta’sir qilishi ko‘rsatiladi.

Turli madaniyatlar turli xil aloqadorlik uslublariga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ba’zi madaniyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni afzal ko‘rishsa, boshqalari esa sirlilikni saqlash va nizolardan qochish, ular uchun muhim bo‘lishi mumkin. Muammoni samarali hal qilish ma’lum bir madaniyatda muloqot qanday tuzilganiga va unga moslashish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Qarorlarni qabul qilish bo‘yicha yondashuv strategiyalarining tahlilida yana bir muhim jihat shundan iborat ediki, har bir alohida o‘rganilgan holatda individual taktika sifatida, tavsiflangan ma’lumotlar ko‘pligi va turli xilligi tufayli kodlar guruhiga kiritilmagan.

Shuningdek, Iroda, sabrlik va stressni boshqarish kabi kuchli irodaviy shaxsiy xususiyatlar alohida o‘rganildi. Yetakchilik fazilatlar va hissiyotlilik kabi xarakterli shaxsiy xususiyatlar alohida komponent sifatida o‘rganildi. Qabul qilingan qarorning samaradorligi va qarordan norozilik qaror qabul qilishning asosiy vazifalari sifatida tahlil qilindi. Har bir xususiyatning namoyon bo‘lishi guruh kodlari va xususiyatlar o‘zaro kesimida tartibida amalga oshdi.

Tadqiqotda kognitiv moslashuvchanlikning madaniyatlararo munosabatlar pozitsiyalari bilan bir-biriga mos kelishini o‘rganib chiqildi, bu yerda har bir holat namoyon bo‘lgan pozitsiyalarni qayd etish usullari bilan aniqlandi. Quyidagi jadvalda

biz kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni QQQ jarayonida ko'rib chiqamiz.

8-jadval.

Qaror qabul qilishda kognitiv moslashuvchanlik bilan madaniyatlararo aloqalar pozitsiyalarini birgalikda bilish (n=47).

Tahlil elementlari	O'rtachadan past KM	O'rtacha KM	O'rtacha yuqori
Madaniy ko'nikmalarni qo'llash	5	7	7
O'z madaniyatingizning salbiy hodisalarini baholash qobiliyati	4	5	6
Stereotiplar	5	3	2
Madaniyatlararo tajriba orttirish	4	6	8
Jamiyatdan begonalashish	4	2	1
Madaniy idrok	3	6	7
O'z madaniyatidan begonalashish	5	4	4
Boshqa madaniyatlarga xayrixohlik	5	2	0
Etnoegoizm	5	3	3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ma'lum darajada kognitiv jihatdan moslashuvchan bo'lgan kishilar o'zlarining va boshqa madaniyatlarga nisbatan salbiy hamda ijobiy munosabatlarini, shuningdek, qaror qabul qilishda madaniyatlararo qayta aloqadorlikni ko'rsatdilar. O'rganilgan har bir holat va hodisa bitta qoidaga bo'ysunmaydi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu to'plangan tajribaga va subyekt jamiyatining ijtimoiy hamda madaniyatlararo xususiyatlariga bevosita bog'liq.

Jadvaldan kognitiv moslashuvchanlikning kengayishi bilan madaniy o'zgarishlarga ijobiy munosabat qanchalik oshishini ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, ijtimoiy o'zgarishlarga salbiy munosabat kamayib boradi.

Qaror qabul qilishda madaniy ko'nikmalardan foydalanish bugungi ko'p tilli va ko'p madaniyatli jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Madaniy ko'nikmalar qaror qabul qilishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi metodlar o'zining samaradorligini amaliyotda ko'rsatdi.

Qaror qabul qilish jarayonida masalani samarali hal qilishga yordam beradigan hodisalar qayd etildi va tahlil qilindi. Ushbu tadbirlar qaror qabul qilish strategiyasi sifatida belgilandi. Quyida ushbu hodisalarning kognitiv moslashuvchanlik darajalari bilan o'zaro ta'sirini ifodalovchi jadval berilgan.

Kognitiv moslashuvchanlikning yuqori, past va o'rta darajalarida sinalluvchining shaxsiy pozitsiyalari hamda strategiyalari takrorlanish miqdorlari qayd etildi.

Kognitiv moslashuvchanlik darajalarida qaror qabul qilishning strategiyalari chastotasi (n=47).

Tahlil elementlari	O‘rtachadan quyi KM	O‘rtacha KM	O‘rtachadan yuqorida KM
Vaziyatni tahlil qilish	4	7	10
Vaziyatni kuzatish	5	8	7
Muqobil variant	5	5	6
Rejalashtirish	4	6	10
Taqqoslash	5	5	9
Qiyinchiliklarni yengish	5	6	10

Kognitiv moslashuvchanlik darajalari va qaror qabul qilish strategiyasi o‘rtasidagi o‘zaro kesishuv madaniyatlararo muhitning muammolarga yechim topish sharoitida qayd etilgan hamda ular tadqiqotda retrospektiv va reflektiv tarzda tahlil qilindi.

Qaror qabul qilishda vaziyatni tahlil qilish – bu mavjud ma’lumotlar va maqsadlarni hisobga olgan holda, qarorlarni yanada ongli va samarali qabul qilishga imkon beradigan jarayondir. Qarorlarni tahlil qilish – bu qarorning barcha jihatlarini aniqlash va baholashni, shuningdek, qaror asosida eng maqbul natijaga olib keladigan harakatlarni o‘z ichiga olgan qarorlarni qabul qilish shakli bo‘lib xizmat qiladi. Ishtirokchilar suhbat davomida o‘z tajribalarini izohladilar, quyida esa, vaziyatni tahlil qilish bosqichlari keltirilgan.

– Maqsadni aniqlash: birinchi qadam samarali yechim uchun qanday maqsad kerakligini aniqlashdir. Nimaga erishmoqchi ekanligini aniq tushunish mumkin bo‘lgan yechimlar doirasini qisqartirishga yordam beradi.

– Axborot yig‘ish: mavjud vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha mavjud ma’lumotlar va faktlarni to‘plashdir. Bunga ma’lumotlarni tahlil qilish, statistika, ekspert xulosalari va ishtirokchining shaxsiy tajribasi kirishi mumkin.

– Muqobil variantlarni baholash: muammoni yechishda turli xil alternativalar va yechimlarni ko‘rib chiqishni bildiradi.

– Xavf va foydani baholash: har bir alternativaning potensial xatarlari hamda foydalarini o‘rganishdir. Har bir xavfning yuzaga kelish ehtimoli va ularning ta’sir darajasi haqida o‘ylab ko‘rish hamda ma’lumotni tahlil qilish va tanlov qilish uchun alternativalarni baholash asosida qaror qabul qilish amaliyotidir.

– Harakatlarni rejalashtirish: tanlangan yechimni amalga oshirish uchun harakatlar rejasini ishlab chiqish. Qabul qilinishi kerak bo‘lgan harakatlar va ularni amalga oshirish muddati.

– Amalga oshirish: reja ishlab chiqilgandan so‘ng, rejaga muvofiq harakatlarni bajarishni boshlash.

– Monitoring va moslashish: yechimning borishini kuzatib borish hamda uning samaradorligini muntazam baholash. Agar kerak bo‘lsa, tuzatishlar kiritish zaruriyati.

– Natijalarni baholash: loyiha yoki davr oxirida natijalarni baholash va ularni taxminlar bilan taqqoslash. Bu kelajakdagi qarorlar uchun saboq olishga yordam beradi.

– O‘rganish: tajribadan xulosa chiqarish va kelajakda qaror qabul qilish ko‘nikmalarni oshirish uchun foydalanish.

Qaror qabul qilishda vaziyatni tahlil qilish tajriba va amaliyot bilan yaxshilanishi mumkin bo‘lgan xodisadir. Agar ma‘lumot yoki holatlar yangi bo‘lsa, qarorni o‘zgartirishga tayyor bo‘lish muhimdir.

Ongli qarorlar qabul qilish. Tanqidiy fikrlash va kognitiv moslashuvchanlikni birlashtirish turli omillar hamda alternativalarini hisobga olgan holda, ko‘proq ma‘lumotga boy va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu ikki jihat muvozanatni tahlil qilish ko‘nikmasi ijodiy fikrlashda qo‘l keladi, bu esa yeng samarali yechimlarga olib kelishi mumkin. Tanqidiy fikrlash va kognitiv moslashuvchanlikdan birgalikda foydalanish muammoni chuqurroq hamda tizimli tahlil qilishga yordam beradi va qaror qabul qilishni atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga yanada moslashuvchan hamda egiluvchan qilishi mumkin. Ushbu ko‘nikmalar, ayniqsa, qiyin va noaniq vaziyatlarda foydali bo‘lishi mumkin.

10-jadval.

Qaror qabul qilishda kognitiv moslashuvchanlik bilan birgalikda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari integratsiyasi (n=47).

TT / KM darajalari	O‘rtachan past KM	O‘rtacha KM	O‘rtachadan yuqorida KM	Jami
O‘rtachadan quyida TT	8	1	0	9
O‘rtacha TT	10	12	5	27
O‘rtachadan yuqori TT	0	2	9	11
Jami:	18	15	14	47

Shunday qilib qarorlarni qabul qilishni o‘rganish, ishtirokchilarning kognitiv moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlashining o‘zaro muvofiqligi bo‘yicha eksperimentdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, natijalar o‘rtachani tashkil qiladi.

Jadvaldan xulosa qilish mumkinki, ikkita hodisa uchun o‘rtacha qiymatdan yuqori va past darajalar o‘rtacha darajaga yaqinroq darajalarga qaraganda ancha past.

Qabul qilingan qarorning samaradorligi, qarordan qoniqish yoki qoniqmaslik bilan belgilandi. Qarordan qoniqish darajasi esa, bir qator omillarga jumladan, foyda olish, ko‘zlangan manfaatga ega bo‘lish, maqsadga erishish va boshqa individual hodisalar bilan xarakterlanadi.

Har bir xususiyatning namoyon bo‘lishi guruh xususiyatlar kodlari va kognitiv jarayonlar kesimida amalga oshdi.

Quyidagi birlashgan jadvallarda “Atlas ti” dasturining sifatli tahlili ma‘lumotlari asosida shaxsning muammoli hamda noaniq vaziyatlarda hissiy va irodaviy kechinmalarining kognitiv moslashuvchanlik bilan kesishuvi keltirilgan bo‘lib, xususiyatlar takrorlanishiga ko‘ra tartiblangan.

11-jadval.

Qaror qabul qilishda kognitiv moslashuvchanlik bilan hissiy ko‘rinishlarning birgalikda paydo bo‘lishi (n=47).

	KM O‘rtachadan quyida	KM o‘rtacha	KM O‘rtachadan yuqorida
Qarordan qoniqish	5	9	14
Qarordan norozilik	10	6	1
Stressni boshqarish	3	11	15
Ijodkorlik	5	7	14
Umidvorlik	6	7	12
Harakat	6	14	8
Shubha	17	9	5
Qayta aloqa	9	3	1
Foyda	5	4	10
Tashvish	18	18	4
Xavf	6	7	8
Mas’uliyatsizlik	15	7	4
Minnatdorchilik	7	8	
Dangasalik	6	6	5
Hamdardlik	9	10	5
Yo‘qotish	12	7	3
Quvonch	5	8	15
Ehtiyotkorlik	4	11	18
O‘z-o‘zini rivojlantirish	5	9	16
Xijolat	8	10	14
Muammoni aks ettirish	5	9	13
Umidsizlik	19	6	3
Qo‘rquv	7	6	
Stereotiplar	9	5	5
O‘z-o‘zini baholash	8	17	20
Uyatchanlik	12	10	7
Odob, axloq	7	10	11

Kognitiv moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha eng yuqori ball 72, eng past ball 12 ni tashkil etadi. 54 dan boshlangan ballar (72 ning 75 % i) o‘rtachadan yuqorini darajani; 42 dan boshlangan natijalar, o‘rtacha darajani va 18 dan boshlangan ballar quyi darajani (72 ning 25 % ni) anglatadi.

Shu tarzda, yuqoridagi hissiy ifodalar kognitiv moslashuvchanlikning turli darajalarida turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Tajribada his-tuyg‘ularni takrorlanishi jarayonida ba’zi ishtirokchilar asl hissiy holatlarini to‘liq tiklay olmadilar. Ushbu ma’lumotni hisobga olgan holda, tadqiqot subyektlariga kundalik yozish va ichki holat haqida aytib berish amaliyotini mashq qilishga imkon berildi. Bu harakat juda samarali bo‘ldi va mazkur texnikadan foydalanish ishtirokchilar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi. Kontent tahlil natijalariga ko‘ra, qaror qabul qilishda aniq belgilangan hissiy holatlar yo‘qligiga ishonch hosil qilish mumkin. Har bir holat o‘rganish uchun individuallikni namoyon etdi.

Navbatdagi jadvalda esa, MTRM turlari va yechimdan qoniqish darajasi ko‘rsatilgan.

12-jadval.**Qarordan qoniqish va madaniyatlararo ta'sirchanlik gradatsiyalarining o'zaro kesishuvi (n=47).**

	Qarordan qoniqish	Qarordan qoniqmaslik	Jami:
Rad etish	2	4	6
Himoya	2	3	5
Minimallashtirish	2	7	9
Qabul qilish	10	1	11
Adaptatsiya	4	1	5
Integratsiya	6	2	8
Kompetensiya	3	0	3
Jami:	29	18	47

Dastlabki uch turdagi ishtirokchilar soni (rad etish, himoya qilish, minimallashtirish) 20 nafarda; keyingi to'rt ko'rinish uchun (qabul qilish, adaptatsiya, integratsiya, kompetensiya) 27 ishtirokchida kuzatildi. Ushbu ishtirokchilar soni yechimdan "qoniqish" va "qoniqmaslik" bo'yicha guruhga ajratildi. Madaniyatlararo sezgirlikning oshishi bilan qabul qilingan qarordan qoniqish kuchayadi va shunga mos ravishda, bu jarayonda qoniqarli qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan barcha xususiyatlar qatnashadi.

Kognitiv moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlash sinaluvchilarning bilish jarayonlarining namoyon bo'lishi sifatida ijtimoiy tajriba hamda bilim o'rtasidagi bog'liqlik natijasida shakl va ma'noga ega bo'ladi. Tadqiqotning keyingi bosqichi ikki bilish jarayoni o'rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat.

13-jadval.**Talabalarning kognitiv moslashuvchanligi va tanqidiy fikrlash darajalari o'rtasidagi bog'liqlik (N=1600).**

TT mezonlari	Korrelyatsiya ahamiyati (p).
Taxminlar	0.00
Dalillar	0,51
Deduksiya	0.00
Mantiqiy hukm	0.00

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tanqidiy fikrlashning barcha toifalari, "argumentatsiya"dan tashqari, talabalarning kognitiv moslashuvchanligi bilan ijobiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarini ko'rsatdi, "taxminlar" $p = 187^{**}$; "argumentlar" $p=0,016$; "deduksiya" $p=178^{**}$; "Mantiqiy xulosalar" $p=179^{**}$.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "taxmin qilish" usuli kognitiv moslashuvchanlik bilan bog'liq bo'lib, kognitiv moslashuvchanlik oshgani sayin tanqidiy tafakkurning "taxmin qilish" darajasi oshadi yoki aksincha tendensiya namoyon bo'ladi. Ammo "dalillar" sohasi va kognitiv moslashuvchanlik bilan o'zaro bog'liqligi o'rtacha darajada. Shuningdek, "deduksiya", "mantiqiy hukmlar" usullari yuqori qiymatlar bilan kognitiv moslashuvchanlikka aloqadorlikni ko'rsatdi.

Madaniyatlararo munosabatlarda katta tajribaga ega bo'lgan ishtirokchilar deyarli bir xil vaziyatlarda qaror qabul qilishga yoki muammoni turli yo'llar bilan

hal qilishga harakat qilishdi. Ba'zi ishtirokchilar boy madaniyatlararo tajribaga va madaniyatlararo sezgirlik turiga ega bo'lishlariga qaramay, ular berilgan madaniy kontekst va ijtimoiy rivojlangan vaziyatlarga ko'ra, muammoga beparvolik bilan yondashdi. Oqibatda ular o'zlari tanlagan qarorlardan mamnun emasligi ayon bo'ldi va mazkur hodisa, ishning umumiy natijalarini belgilashda aniqlandi. QQQ jarayonida madaniyatlararo bilim va ko'nikmalargagina tayanib ish ko'rish, qaror qabul qilish strategiyalari va texnikalarini inobatga olmaslik natijasida hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar qoniqarsiz va sifatsiz qarorlar bilan yakun topishi mumkin.

“Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish texnikasining tajriba guruhlardagi ahamiyatini aniqlash” deb nomlangan dissertatsiyaning to'rtinchi bobida madaniyatlararo tajriba va madaniyatlararo sezgirlikning eksperimental guruhdagi kognitiv funksiyalar va o'zaro ta'sirning turli jihatlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda madaniyatlararo tajribalar tanqidiy fikrlash va vazifalarni bajarishga qanday ta'sir qilishi mumkinligini aniqlash uchun eksperimental hamda nazorat guruhlarida o'rtasida qiyosiy tahlillar o'tkazildi. Shu maqsadda test ishlatilgan. Ushbu mezonni qo'llash uchun barcha talablar bajariladi.

Natijalar quyidagicha taqdim etiladi: madaniyatlararo tajriba va madaniyatlararo sezgirlik mos ravishda $t=6,9$ va $t=4,8$ qiymarlarda ahamiyatligi yuqori 0,000 darajada belgilandi. Tanqidiy fikrlash testlarini bajarishdagi farqning qiymati $t= 5,9$ $p=0,000$. Ijroga sarflangan vaqt qiymati $t=(-3,7)$ $p=0,000$ da qayd etildi.

14-jadval.

Tanqidiy tafakkur testini bajarishda guruhlardagi farqlar.

Guruhlar / o'rtacha qiymatlari	“Test”	“Vaqt”
Eksperimental guruh	34.3	3.59
Nazorat guruhi	24.8	4.51

Ushbu tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sifatida nazorat guruhiga nisbatan tadqiqot guruhida tanqidiy fikrlash testlari bo'yicha ballarning sezilarli darajada oshishi qayd etiladi.

Ushbu kuzatish shuni ko'rsatadiki, boy madaniyatlararo tajribaga ega bo'lgan tadqiqot guruhi ishtirokchilari ma'lumotni tahlil qilish, mantiqiy aloqalarni aniqlash va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini yuqori darajada namoyon etgan.

Bundan tashqari, eksperimental guruh ishtirokchilari yuqori madaniyatlararo sezgirlikni namoyon etishgan. Bu empatiya, tushunish va madaniy farqlarni hurmat qilishni rivojlantirish omili sifatida madaniyatlararo tajriba muhimligini ta'kidlaydi.

Sinaluvchilarning kognitiv moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan turli mavzularni muhokama qilish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ushbu munozaralar uchun maxsus tuzilgan va qo'llab-quvvatlovchi kontekst yaratish korreksion ishlar uchun juda muhimdir.

Quyida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish va QQQ jarayonida aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish usullari ifodalangan.

Kognitiv moslashuvchanlik korreksiyasi uchun mulohazalar variantlari.

Mulohazalar	Savollar
Yangi ma'lumotlarga moslashish:	Yangi ma'lumotlarni qarorga va yechimga qo'shish uchun qanday strategiyalardan foydalanasiz? Qarashlaringizga zid bo'lgan ma'lumotlarga qanday javob berasiz?
Muammolarni hal qilishning turli usullari bilan tajriba qilish:	Muammoni hal qilishga qanday yondashasiz? Boshqa usullarni ko'rib chiqa olasizmi? Sizing standart usullaringiz ishlaymaydigan holatlar bormi va ular bilan qanday kurashasiz?
O'zgarishlarni boshqarish:	Hayotingiz yoki ishingizdagi o'zgarishlarga qanday qaraysiz? Yangi muhitga moslashish uchun qanday strategiyalardan foydalanasiz? Rejalaringizni yoki qarorlaringizni tezda o'zgartirishingiz kerak bo'lgan holat haqida bizga xabar bera olasizmi? Yangi ko'nikmalarni qanday ko'nikmalar yoki sevimli mashg'ulotlarni rivojlantirmoqchisiz va ularni o'zlashtirish uchun qanday qadamlar qo'yyapsiz? O'rganmoqchi bo'lgan, lekin ilgari qilmagan bilim yoki ko'nikmalar sohalari bormi?
Stress va noaniqlikni boshqarish:	Stress va noaniqlik bilan kurashish uchun qanday strategiyalardan foydalanasiz? Kognitiv moslashuvchanlik stressli vaziyatlarga yaxshiroq moslashishga qanday yordam beradi? O'z nuqtayi nazariningizni o'zgartirish muammoni hal qilishga yoki vaziyatni boshqa tomondan ko'rishga yordam bergan misollar keltira olasizmi? O'z fikrlaringiz yoki qarashlaringizni o'zgartirish uchun qanday usullardan foydalanasiz?
Boshqalar bilan muhokama qilish:	Zamonaviy texnologiyalar doimo rivojlanib bormoqda. Yangi dastur va ilovalarga tezda moslashish uchun qanday usul hamda strategiyalardan foydalanasiz? Yangi texnologiyani o'rganishingiz kerak bo'lgan tajribangiz va bu sizning kundalik vazifalaringiz hamda qarorlaringizga qanday ta'sir qilgani bilan o'rtoqlasha olasizmi?

Sinaluvchilar javoblari va variantlar o'xshash shkalalarda birlashtirish asnosida baholandi.

16-jadval.

Tadqiqot guruhlarining yangi texnologiyalarga moslashish strategiyalari (N=95).

№	Javoblar:	Ishtirokchilar:	
		n=48	n=47
1.	O'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash	8	6
2.	Hamkorlik, qayta aloqa va maslahat	7	15
3.	Tajribalar va mustaqil tadqiqotlar	5	4
4.	Interfeys o'zgarishlariga moslashish	9	13
5.	Vaqtning boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish	7	4
6.	Xatolarning roli va xatolardan saboq chiqarish	5	2
7.	Qurilmalarning kasbiy rivojlanishga ta'sirini o'rganib borish	6	4
Jami:		95	

Tajriba oxirida tanqidiy fikrlash testlarini yechish qobiliyati Styudent mezonida qayta baholandi. Ma'lumotlarni taqqoslash uchun, tanlanma normalligi haqidagi asosiy taxmin tekshirildi. $p=0,06$ va $p=0,09$ qiymatlari bilan "oldin" va "keyin" ikkita o'zgaruvchining normalligi tasdiqlangandan so'ng, tegishli Styudent mezoni qo'llanildi.

17-jadval.


Tajribadan "oldin" va "keyin" tanqidiy fikrlash testining natijalari Styudent mezonida baholanishi (n=95).

O'rtacha qiymat «oldin» va «keyin»	Standart og'ish	T qiymat	Ahamiyati
n=47 -4.403	4.350	-4.409	0,001
n=48 -4.302	4.201	-3.301	0,001

Jadvaldagi qiymatlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning samaradorligini $p=0,001$ darajasida tasdiqlanganligini ko'rsatadi. Takroriy testda talabalar yuqori ko'rsatkichi tasodifiy emas, balki bajarilgan ishlarning natijasi ekanligi belgilandi.

Ikki guruh natijalari o'rtasidagi farq $p=0,08$ darajasida aniqlanishi va guruhlarda sezilarli farqning yo'qligi e'tirof etildi. Dastlab guruhlar o'zaro farq qilsa-da, dastur metodlari o'z samarasini berdi.

Kognitiv jarayonlarni o'rganishda ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy omillarni o'rganish, ishning mohiyatini anglatuvchi, tadqiqotning barcha tahliliy elementlarini dinamik aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik modelini yaratishga imkon berdi.



4-rasm. Kognitiv jarayonlarning rivojlantirish modeli.

Tadqiqot davridan o‘rin olgan barcha o‘rganilgan jarayonlar modelda o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur jarayon rivojlantirish dasturi orqali boshqarilishi va kognitiv xususiyatlar bu vaziyatda maqsadli rivojlantirilishi bilan birga, madaniyatlar aloqadorligi tajribasi va madaniyatlararo kompetentlik omillilari asosida tabiiy ravishda rivojlantirib boradi. Barcha kognitiv jarayonlarning asosiy maqsadi eng to‘g‘ri va samarali qarorni qabul qilish ko‘nikmasi bilan subyektiv ravishda baholanadi. Bunda ijtimoiy omillar bilan birga rivojlantirish dasturini ham asosiy omil qilib olish va uning ahamiyatini ajratib ko‘rsatish joiz.

Tajriba davomida aniqlangan fenomenal hodisaga muvofiq, tanqidiy tafakkur ko‘nikmalari darajasi oshgan sayin, ularga hamrohlik qiluvchi elementlar yaxshilanib boradi.

Tadqiqot mobaynida kuzatilgan jihatlarni o‘zida umumlashtirgan modeldan shu narsa aniqki, ishtirokchilarning muammoni yechishdagi hissiy jihatlari, shaxsiy va o‘zga madaniy atributlarga munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi, qaror qabul qilish strategiyalari baravar ravishda o‘zgarishlarga yuz tutib, yaxshilanib borgan. Ushbu jihatlar miqdoriy tahlillarda va sifat tahlillarida o‘z aksini topdi. Ijtimoiy omillar asosida boshqarilib boradigan kognitiv jarayonlar ham, o‘z navbatida, ishtirokchilarning barcha irodaviy, ratsional, emotiv, strategik va boshqa xususiyatlarini belgilaydi hamda boshqaradi.

Talabalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish usullariga bag‘ishlangan bobda har bir ishlab chiqilgan metodikaning roli, uning ijtimoiy hodisalar va madaniyatlararo munosabatlar natijasida kelib chiqadigan kognitiv jarayonlarga mosligini hisobga olinadi.

Ishtirokchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish usullaridan tashqari, qaror qabul qilish va madaniyatlararo aloqada uchraydigan hissiy salbiy hodisalarni bartaraf etish yoki kamaytirish uchun tuzatish vositalarini tavsiflaydilar. Qolaversa, tadqiqot davomida aniqlangan hissiy chekinishlar, rejani tuza olmaslik kabi salbiy xodisalarni tuzatishga qaratilgan korreksiya va texnikalar taqdim etildi.

Tanqidiy tafakkur bo‘yicha test natijalarini, vazifalarni bajarishga sarflangan vaqtni, madaniyatlararo almashinuvlar muntazam ravishda sodir bo‘lgan tajriba guruhlarida va madaniyatlararo tajribaga ega bo‘lmagan nazorat guruhlarida taqqoslandi. Ushbu guruhlar o‘rtasidagi farq madaniyatlararo aloqalar tajribasi va amaliyotining ahamiyatini ta’kidladi.

XULOSA

“Madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy psixologik omili sifatida” mavzusidagi olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tanqidiy fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik va qaror qabul qilish deb ta’riflangan kognitiv jarayonlarning shakllanishi, rivojlanishi madaniyatlararo kompetentlik, madaniyatlararo aloqadorlik ijtimoiy-psixologik omillari sifatida belgilandi.

2. Shaxsning tanqidiy tafakkuri mezonlari taxmilar, dalillar, deduksiya, mantiqiy hukm va kognitiv moslashuvchanlik hodisasi o‘zaro bog‘liqlili ahamiyatli tarzda qayd etildi. Ijtimoiy psixologik omillar madaniyatlararo ta’sirchanlik guruhlari: rad etish, himoya, minimallasuv, adaptatsiya, qabul qilish, integratsiya, kompetentlik va madaniyatlararo aloqadorlik tajribasi: tajribaning yo‘qligi, tajribaning kamligi, tajribaning mavjudligi, boy tajriba bilan o‘zaro korrelyativ ijobiy munosabatlari belgilandi. Bular asosida tanqidiy tafakkurning etkazilgan ma’lumot, suhbatdoshning xabarida madaniy va emotsional kontentni aniqlashga yordam beruvchi empatik komponenti aniqlandi.

3. Noaniq vaziyatlarda va madaniyatlararo sharoitlarda talabalarning qaror qabul qilish hamda muammolarni yechish jarayoni -emotsional-irodaviy: stress, vahima, ishonchsizlik, quvonch, qo‘rquv, xijolat, tashvish, ma’uliyatsizlik, qayta aloqa; -perseptiv: madaniy idrok, muammoni anglash, tafovutalarni baholash, imkoniyat va kamchiliklarini idrok qilish; -strategik: tahlil qilish, muqobil variantlarga ega bo‘lish, qiyoslash, vaziyatni boshqarish qabi xususiyatlarning o‘ziga xos dinamikada namoyon bo‘lishi bilan ifodalanadi.

4. Madaniyatlararo sharoitlar va noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayoni tanqidiy tafakkurning hamda kognitiv moslashuvchanlik yuqori darajalariga ega talabalar emotsional barqarorlik, perseptiv oqilonalik va kuchli strategik moslashuvchanlikni ko‘rsatgan bir paytda, tanqidiy tafakkurning hamda kognitiv moslashuvchanlik past va nisbatan past talabalarda salbiy holatlar takrorlanishi kuzatildi.

5. Muammoga samarali yechim topish, oqilona qaror qabul qilish bahosi va me’yoriy kutilmalar hamda maqsadlarga erishish, chiqargan qarordan qoniqish hissini tuyish, orqali belgilanishi sifat va kontent tahlilda o‘z isbotini topdi.

6. Tadqiqot guruhlarining turli yangi va noaniq vaziyatlarda o‘z etnik mansubligini idrok qilishi etnik identivligini anglashi, o‘zgalarning etnik mansubligini hurmat qilishi kabi hodisalarning takrorlanishi tanqidiy tafakkur va kognitiv moslashuvchanlikning yuqori darajalariga mos keldi. Tanqidiy tafakkur va kognitiv moslashuvchanlikning quyi bosqichlarida esa, etnik egoistlik, etnik izolyatsiya, etnik indeferentlik, etnik begonalashuv, etno nigilizm kabi xususiyatlar takrorlanishi aniqlandi.

7. Tadqiqotda aniqlangan salbiy holatlarni kamaytirish va bartaraf qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihaga muvofiq, tajriba guruhlarining yangi texnologiyalarga moslashish strategiyalari shakllantirildi, ular: o‘rganish va o‘z-o‘zini tarbiyalash, hamkorlik, qayta aloqa va maslahat, tajribalar va mustaqil tadqiqotlar, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, xatolarning roli va xatolardan saboq chiqarish, qurilmalarning kasbiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganib borish va boshqa ko‘nikmalar amalga oshirilishi ortidan samarali natijaga erishish ahamiyati salmoqli baholandi.

8. Tadqiqot guruhlarida qaror qabul qilishda muammolarni hal qilish variantlari ishlab chiqildi hamda takrorlanishiga ko‘ra tartiblandi, natijada: bir

xil muammolarni hal qilishning turli usullari bo'yicha shaxsiy tajribaga e'tibor qaratilishi, muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy maslahatlarning zarurligi, muammolarni hal qilishda turli xil yondashuvlarni o'rganish amaliyotining mavjudligi, muammoli holatlarda shaxsiy usullarni ishlab chiqish, tajribalar va natijalarni taqqoslash qobiliyati, muvaffaqiyatsizliklardan qochish imkoniyatining mavjudligi tahlil qilindi.

9. Tajriba guruhlarida kuzatish, suhbat kabi usullar yordamida sinaluvchilarda aniqlangan hodisalar va vaziyatlarni boshqargan hamda tartibga solgan, qaror qabul qilish epizodlari ishlab chiqildi unga ko'ra, o'quv jarayonida stressni boshqarish, moliyaviy masalalarni boshqarish, munosabatlarni yaxshilash, kundalik hayot tashvishlarni kamaytirish, mas'uliyatsiz xatti-harakatlarni nazorat qilish, o'z qobiliyatiga shubha qilmaslik, muloqotda uyatchanlikni yengish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish amaliyoti ahamiyatli yakun topganligi qayd etildi va qaror qabul qilishning tajribaga asoslangan bilimlar komponenti aniqlandi. Shuningdek, turli xil qarashlarni yaxlik bir qarorda umumlashtiruvchi kognitiv moslashuvchanlikning integrativ tafakkur komponenti belgilandi.

10. Miqdoriy va sifat tahlillaridan olingan ma'lumotlar asosida tanqidiy tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik, qaror qabul qilish dinamikasini ijtimoiy omillar ta'sirida aks etuvchi model skakllantirilib, uning yordamida madaniyatlro ijtimoiy munosabatlarning kognitiv jarayoniga ta'sir etishi bilan birga ularning ta'siri ostida takomillashib borishini kuzatish mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, o'qituvchilar, psixologlar, ish beuvchilar, tadqiqotchilar ota-onalar uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Talabalar o'rtasida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish. Tadqiqotda tasvirlangan maxsus psixometrik usullardan foydalanilgan holda ushbu usullarning samaradorligini baholash mumkin.

2. Talabalarning ta'lim faoliyatiga, madaniyatlararo ta'lim dasturini joriy yetishning imkoniyati mavjud bo'lib, olingan natijalar yuzasidan shakllangan madaniyatlararo kompetensiya bo'yicha o'quv materiallarini o'quv jarayoniga qo'shish ayni muddao bo'lardi.

3. O'qituvchilarning madaniyatlararo kompetentligi va kognitiv jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha trening dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Oliygo huzurida tanqidiy tafakkur, qaror qabul qilish, kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo munosabatlarni tahlil qiladigan hamda ularning darajasini maxsus ishlab chiqilgan testlar asosida baholaydigan ilmiy markazlar, madaniy markazlar ochish jamiyatda yoshlarni keng qamrovli tafakkur qila olish.

5. Talabalar va o'qituvchilarning madaniyatlararo, kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun dastur va seminarlar tashlillashtirish lozim.

6. O'quv muhitida madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va talabalar hamda o'qituvchilarning ko'p qirrali fikrlashini rivojlantirish uchun sharoit yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ РnD.03/30.12.2021.P.01.07 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САЛОМОВА ГУЛИ ШОДИМУРДОВНА

**МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ
СТУДЕНТОВ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под № B2024.2.DSc/P186.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации доступен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.psi-ik.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный консультант: Мухамедова Дилбар Гафурджановна
доктор психологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Абдулаева Шоира Хамидовна
доктор психологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович
доктор психологических наук (DSc), профессор

Исакулова Нилуфар Жаникуловна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в «___» часов на заседании разовой Научного совета PhD.03/30.12.2021.P.01.07 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, 4. Национальный университет Узбекистана, здание факультета социальных наук (4-ый этаж, кабинет 409). Тел.: (99871) 227-12-24; факс: (99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под номером ____). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, 4. НУУз, Главный учебный корпус, отсек «В», 2-ой этаж, кабинет 217. Тел.: (99871) 246-52-74; факс: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года
(протокол реестра рассылки под №___ от «___» _____ 2024 года)



У.Б.Шамсиев

Председатель разового Ученого совета по присуждающего разовые ученые степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

И.И.Рахимова

Ученый секретарь разового Ученого совета по присуждающего разовые ученые степеней, доктор философии по психологияским наукам (PhD), доцент

Н.С.Сафиев

Председатель разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях углубляющегося процесса глобализации, особенно социальной глобализации, а также широкого внедрения цифровых форматов и искусственного интеллекта в развитие общества, социально-психологические факторы межкультурной компетентности и когнитивных процессов приобретают важное значение. Согласно исследованию «Boston Consulting Group», в настоящее время «в результате технологического прогресса под угрозой исчезновения находится от 9 % до 50 % профессий»¹. Всемирный экономический форум (16.01.2024, Давос), в своем заключении по вопросам образования и занятости, назвал критическое мышление, когнитивную гибкость и принятие решений важнейшими навыками, которые возглавляют рейтинг мягких навыков. В современном и будущем развитии человечества такие навыки, как критическое мышление, способность принимать решения и когнитивная адаптивность, рассматриваются как психолого-мотивационная проблема человеческого фактора в социальной деятельности.

В мире, исследования, связанные с психологией личности, особенно с её социальными способностями, как социально-психологическим фактором когнитивного процесса, уделяют приоритетное внимание межкультурной компетентности как социально-психологическому фактору когнитивного процесса студентов. В этом отношении важное значение приобретают исследования, проводимые по следующим направлениям: определение эмоциональных, поведенческих, стратегических и когнитивных компонентов критического мышления и принятия решений в зависимости от индивидуальных особенностей; классификация интегративных компонентов мышления, характерных для когнитивной гибкости; совершенствование социально-психологических механизмов и моделей принятия решений в межкультурных и нестандартных ситуациях; создание новой методики диагностики уровней критического мышления, отражающей культурный контекст; разработка эффективных методов развития когнитивных способностей у молодёжи в соответствии с современными требованиями и изменениями качества; определение роли качеств модели «4C» 1 – «критическое мышление», 2 – «креативность», 3 – «коммуникативность», 4 – «сотрудничество» в решении сложных задач и принятии решений в различных социальных ситуациях.

В создании Нового Узбекистана информация, знания, технологии и человеческий капитал рассматриваются как стратегический фактор конкурентоспособного и устойчивого развития страны. В этом направлении уделяется особое внимание фундаментальному повышению качества образования и воспитания, а также готовности молодежи к изменениям на мировом рынке труда и владению конкурирующими навыками. Были определены приоритетные задачи, такие как «...Повышение

¹ <https://www.bcg.com/publications>, <https://www.weforum.org/events/world-economic-forum-annual-meeting-2024/>.

интеллектуального потенциала молодежи, стимулирование их научной деятельности, организация системы образования в соответствии с изменениями на международном рынке труда и технологическими процессами, выведение качества образования в вузах на новый уровень»². В этой связи целесообразно расширить масштабы научных исследований по следующим направлениям: психологическая оценка частоты повторения социальных и эмоциональных состояний студентов в условиях межкультурных отношений и неопределённых ситуаций; психологическое уточнение компонентов принятия решений в зависимости от различных уровней межкультурной чувствительности, критического мышления и когнитивной гибкости студентов; совершенствование моделей развития когнитивных процессов в зависимости от целевых факторов и компонентов, связанных с деятельностью личности.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-№60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановление Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПП-300 «О мерах по качественной и своевременной реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в 2023 году», а также Постановление Кабинета Министров от 18 января 2021 года № 20 «Об утверждении Концепции государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года» и другие нормативно-правовые акты, относящиеся к данной области, служат определенными критериями для проведения данного диссертационного исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, нравственно-просветительском образовательном развитии информатизации общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³. В мире междисциплинарные научные исследования, направленные на раскрытие социальных характеристик, влияющих на когнитивные процессы студентов, а также на изучение межкультурной компетентности и опыта,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-apreldagi PF-37-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi Farmoni.

³ https://en.wikipedia.org/wiki/United_States_Military_Academy,
<https://www.westpoint.edu/>,
http://www.richardgilbert.ca/achart/public_html/articles/hibernian/index.html,
<https://www.university-directory.eu/Korea-Republic/Korea-Military-Academy.html>,
<https://euni.ru/vuzy/germaniya/bavaria/muenchen/uni-bw-muenchen>,
<https://www.ssbrack.com/2022/05/national-defence-academy-khadakwasla.html>,
<https://com/voennyj-uchebno-nauchnyj-centr-suxoputnyx-vojsk-obshhevojskovaya-akademiya-vooruzhennyx/>,
[https://military-history.fandom.com/wiki/National_Defense_University_\(Turkey\)](https://military-history.fandom.com/wiki/National_Defense_University_(Turkey)),
https://polish.com.ua/universities/woennaja_tehniheskaja_akademija/,
<https://mudofaa.uz/qurolli-kuchlar-akademiyasi/>.

проводятся в следующих научных центрах и высших учебных заведениях: University of Southern California Marshall (США); Institut de Décision et d'Analyse, Université de Toulouse (Франция); Centre for Advanced Research on Mind and Critical Thinking – NUS (Сингапур); Oxford Uehiro Centre for Practical Ethics (Великобритания); Jönköping University Intercultural Education and Research Centre (Швеция); Университет Сириус – НСКИ (Россия).

В мире междисциплинарные научные исследования, направленные на раскрытие социальных характеристик, влияющих на когнитивные процессы студентов, а также на изучение межкультурной компетентности и опыта, проводятся в следующих научных центрах и высших учебных заведениях: Университет СТС (University of Wisconsin-Stevens Point); Институт анализа решений и принятия решений, Университет Тулузы (Франция); Центр передовых исследований в области мышления и критического мышления – Institut de Décision et d'Analyse, Université de Toulouse (Франция); Oxford Uehiro Centre for Practical Ethics (Великобритания); Университет Jönköping – Центр межкультурного образования и исследований (Швеция); Университет «Сириус» – НСКИ (Россия) и других.

